

№ 04-41/15

2026 y. «24» mart

“TASDIQLANGAN”

“ANOR BANK” AJ

Kuzatuv kengashining

2026-yil «19» mart dagi

14 sonli yig'ilish Bayoni

Kuzatuv Kengashi Raisi


Sh. Nosirov



**“ANOR BANK” AKSIYADORLIK JAMIYATINING
EMISSIYA SIYOSATI**

Toshkent - 2026

MUNDARIJA

1. UMUMIY QOIDALAR	3
2. EMISSIYA SIYOSATINING STRATEGIYASI VA MAQSADLARI	3
3. EMISSIYA SIYOSATINING ASOSIY PRINSIPLARI	3
4. BANK TOMONIDAN CHIQARILADIGAN QIMMATLI QOG‘OZLARNING TURLARI VA SHAKLLARI. EMISSIYA MUDDATLARI	4
5. QIMMATLI QOG‘OZLAR LIKVIDLIGINI TA‘MINLASH	9
6. QIMMATLI QOG‘OZLARNI JOYLASHTIRISH	9
7. QIMMATLI QOG‘OZLARNI SO‘NDIRISH	9
8. EMISSIYA BILAN BOG‘LIQ RISKLARNI BOSHQARISH.....	10
9. BANK TOMONIDAN AXBOROTNI OSHKOR ETISH	10
10. BANKNING EMISSIYA FAOLIYATINI AUDIT QILISH	11
11. YAKUNIY QOIDALAR	11

1-BOB. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur “ANOR BANK” Aksiyadorlik jamiyatining Emissiya siyosati (keyingi o‘rinlarda – Siyosat) O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”, “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.04.2015 yildagi “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4720-son Farmoniga, Qimmatli qog‘ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish qoidalari (ro‘yhat raqami 2000, 2009 yil 30 avgust), O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlariga, shuningdek “ANOR BANK” Aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda — Bank) Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, bankning emissiya faoliyatining maqsadlari va asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi.

1.2. Mazkur Siyosat bank tomonidan o‘z qimmatli qog‘ozlarini emissiya qilish jarayonida faoliyat yuritishning maqsadlari va strategiyasini belgilaydi.

1.3. Bankning emissiya faoliyati — bu bank tomonidan qimmatli qog‘ozlarni (aksiyalar, obligatsiyalar, depozit va jamg‘arma sertifikatlari, veksellar hamda hosilaviy qimmatli qog‘ozlar) muomalaga chiqarish bilan bog‘liq faoliyat bo‘lib, resurslarni to‘ldirish va/yoki investitsiyalarni moliyalashtirish uchun pul mablag‘larini jalb etishga, shuningdek bank likvidligini ta‘minlash maqsadida passivlarni diversifikatsiya qilishga qaratilgan.

2-BOB. EMISSIYA SIYOSATINING STRATEGIYASI VA MAQSADLARI

2.1. Emissiya faoliyatini amalga oshirishning asosiy maqsadi aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bo‘sh pul mablag‘larini bank tomonidan chiqarilgan qimmatli qog‘ozlarga jalb etish orqali kapitalni oshirish, resurs bazasini kengaytirish hamda bank passivlarini diversifikatsiya qilishdan iborat.

2.2. Siyosatning vazifalari:

- emissiya jarayonlarini tizimlashtirish;
- investorlar huquqlarini himoya qilish;
- shaffoflikni ta‘minlash;
- risklarni boshqarish mexanizmlarini belgilash.

2.2. Bank, shuningdek, subordinar qarzni shakllantirish uchun uzoq muddatli qarz qimmatli qog‘ozlarini chiqarishi mumkin.

2.3. Bank amaldagi qonunchilik va mazkur Siyosat doirasida emissiya faoliyatining yo‘nalishlarini mustaqil ravishda belgilaydi hamda emissiya qilishni maqsadga muvofiq deb hisoblagan qimmatli qog‘ozlarning turi va shakllarini tanlaydi.

2.4. Bank muomalaga chiqariladigan barcha turdagi qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha emissiya dasturini puxta va konservativ yondashuv asosida ishlab chiqadi.

3-BOB. EMISSIYA SIYOSATINING ASOSIY PRINSIPLARI

3.1. Bankning emissiya siyosati likvidlikni ta‘minlash va raqobatbardoshlikni saqlashga qaratilgan bo‘lib, qonuniylik, shaffoflik, rentabellik va mijozlar manfaatlarini himoya qilishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek u quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

- bank qimmatli qog'ozlarini emissiya qilishda normativ hujjatlar bilan belgilangan tartib-taomillarga qat'iy rioya etish;
- jalb etiladigan mablag'lardan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida imkon qadar kam xarajatlar bilan resurslar jalb qilish;
- emissiya jarayoni shaffof va hisobdor bo'lishi, ichki va tashqi auditorlar nazoratida amalga oshirilishi;
- mazkur Siyosat maqsadlarining bankning umumiy strategik rivojlanish yo'nalishlariga muvofiqligi;
- bankning aktivlar va passivlarni boshqarish siyosatining asosiy mezonlariga muvofiqligi.

4-BOB. BANK TOMONIDAN CHIQRILADIGAN QIMMATLI QOG'OZLARNING TURLARI VA SHAKLLARI. EMISSIYA MUDDATLARI.

4.1. Mazkur Siyosatning strategiyasi va maqsadlaridan kelib chiqqan holda, bank O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq aksiyalar, obligatsiyalar, depozit (jamg'arma) sertifikatlari hamda boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarishi mumkin.

4.2. Qimmatli qog'ozlar belgilangan tartibda hujjatli yoki hujjatsiz shaklda muomalaga chiqarilishi mumkin.

4.3. Bank muomalasi cheklangan muddatga ega bo'lgan obligatsiyalar, depozit sertifikatlari, hosilaviy qimmatli qog'ozlar va veksellarni amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq chiqaradi. Aksiyalar hujjatsiz shaklda chiqariladi.

4.4. Emissiya qilingan qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlilik darajasi ularning muomalada bo'lish muddatiga muvofiq belgilanadi.

Aksiyalar

4.5. Aksiya — muddati belgilanmagan, egasi nomiga rasmiylashtirilgan emissiyaviy qimmatli qog'oz bo'lib, u o'z egasiga bank foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish, bankni boshqarishda ishtirok etish hamda bank tugatilganda qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo'lgan huquqni tasdiqlaydi.

4.6. Oddiy aksiyalar ovoz berish huquqini beruvchi bo'lib, ularning egalari dividendlar olish va bankni boshqarishda ishtirok etish huquqini beradi.

Imtiyozli aksiyalar esa ularning egalariga dividendlarni birinchi navbatda olish, shuningdek bank tugatilganda aksiyalarga kiritilgan mablag'larni ustuvor tartibda qaytarib olish huquqini beradi.

Imtiyozli aksiyalar egalari bo'lgan aksiyadorlar, qonunchilik va bank ustavida nazarda tutilgan hollardan mustasno, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish huquqiga ega emas.

4.7. Aksiyador quyidagi huquqlarga ega:

- bank aksiyadorlari reestriga kiritilish;
- depozitariyidagi depo hisobvarag'idan ko'chirma olish;
- bank foydasining bir qismini dividendlar shaklida olish;
- bank tugatilganda o'z ulushiga mutanosib mol-mulkning bir qismini olish;
- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida ovoz berish orqali bankni boshqarishda ishtirok etish;

- bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlardan tashqari bankning moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborot olish;
- olingan dividendlarni erkin tasarruf etish;
- qonunchilikda belgilangan hollarda o'zlariga tegishli aksiyalarning barchasini yoki bir qismini bank tomonidan qaytarib sotib olinishini talab qilish;
- qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z huquqlarini himoya qilish;
- yetkazilgan zararni belgilangan tartibda qoplanishini talab qilish;
- o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalar va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarga birlashish;
- qimmatli qog'ozlarni sotib olish bilan bog'liq zararlar, shu jumladan boy berilgan foyda bilan bog'liq xavflarni sug'urtalash.

4.8. Aksiyadorlar qonunchilik va bank Ustaviga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

4.9. Bank oddiy aksiyalarni majburiy ravishda joylashtiradi, shuningdek imtiyozli aksiyalarni, shu jumladan konvertatsiya qilinadigan imtiyozli aksiyalarni joylashtirish huquqiga ega. Bankning barcha aksiyalari egasi nomiga rasmiylashtirilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar hisoblanadi. Joylashtirilgan imtiyozli aksiyalarning nominal qiymati bank ustav kapitalining yigirma foizidan oshmasligi lozim.

4.10. Oddiy aksiyalarni imtiyozli aksiyalarga, korporativ obligatsiyalarga yoki boshqa qimmatli qog'ozlarga konvertatsiya qilishga yo'l qo'yilmaydi.

4.11. Bank aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlari joylashtirilayotganda ularning to'lovi pul mablag'lari va boshqa to'lov vositalari, mol-mulk, shuningdek pul bahosiga ega bo'lgan huquqlar (jumladan, mulkiy huquqlar) bilan amalga oshirilishi mumkin.

4.12. Qo'shimcha aksiyalar bank tomonidan faqat bank Ustavida belgilangan e'lon qilingan aksiyalar soni doirasida joylashtirilishi mumkin. Bank ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan oshirish to'g'risidagi qaror, bank Ustavida o'zgacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Qo'shimcha aksiyalar chiqarilishi faqat bank tomonidan ilgari joylashtirilgan barcha aksiyalar to'liq to'langanidan keyingina amalga oshirilishi mumkin. Qo'shimcha aksiyalar chiqarish to'g'risidagi qaror faqat oldingi aksiyalar chiqarilishi yakunlari bo'yicha bank Ustaviga kiritilgan, joylashtirilgan va e'lon qilingan aksiyalar sonining yangi miqdoriga oid o'zgartirishlar davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan so'ng qabul qilinishi mumkin.

4.13. Joylashtiriladigan aksiyalar soni aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan miqdordan oshmasligi lozim.

4.14. Bank aksiyalar chiqarilishi to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch oy ichida, biroq aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qaror tasdiqlangan kundan boshlab bir oydan kechiktirmay, qonunchilikda belgilangan tartibda aksiyalar chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun ro'yxatdan o'tkazuvchi organga hujjatlarni taqdim etishi shart.

4.15. Bank amaldagi qonunchilik talablarini inobatga olgan holda, o'zi chiqarayotgan aksiyalar bo'yicha ochiq obuna (ommaviy joylashtirish) o'tkazish va ularni erkin sotishni amalga oshirish huquqiga ega. Bunda, aksiyalarni birlamchi ommaviy joylashtirish jarayonida jamiyat tomonidan joriy etiladigan xodimlar aksiyalariga egalik qilish rejasi doirasida jamiyat xodimlari aksiyalarni sotib olishda imtiyozli huquqqa ega bo'ladilar.

Shuningdek, bank Ustavi yoki qonunchilik talablarida yopiq obuna o'tkazish imkoniyati cheklangan hollardan mustasno, bank chiqarilayotgan aksiyalar bo'yicha yopiq obuna (xususiy joylashtirish) ham o'tkazishi mumkin.

4.16. Bank tomonidan aksiyalarni joylashtirish muddati ularning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab bir yildan oshmasligi lozim. Ochiq obuna orqali aksiyalarni joylashtirish bank aksiyalarining emissiya prospekti davlat ro'yxatidan o'tkazilgani to'g'risidagi xabar e'lon qilingan kundan boshlab kamida ikki hafta o'tgach amalga oshiriladi.

4.17. Bank aksiyalarini joylashtirish cheklanmagan doiradagi shaxslar orasida ochiq obuna yo'li bilan faqat fond birjasi va tashkil etilgan birjadan tashqari qimmatli qog'ozlar bozorida amalga oshiriladi.

4.18. Aksiyalar chiqarilishi yakunlari to'g'risidagi xabarnoma bank Boshqaruvi raisi, bosh buxgalter yoki ularning vazifalarini bajaruvchi shaxslar tomonidan imzolani hamda imzolangan sana ko'rsatiladi. Aksiyalar chiqarilishi yakunlari to'g'risidagi xabarnomani imzolagan mas'ul shaxslarning imzolari bank muhri bilan tasdiqlanadi.

4.19. Bank ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan oshirish qonunchilikda belgilangan tartibda jalb etilgan investitsiyalar, bankning o'z kapitali hamda hisoblangan dividendlar hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

4.20. Bank ustav kapitali bankning o'z kapitali hisobidan qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan oshirilgan taqdirda, ushbu aksiyalar barcha aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi. Bunda har bir aksiyadorga o'ziga tegishli bo'lgan aksiyalar soniga mutanosib ravishda, aynan o'sha turdagi aksiyalar taqsimlanadi. Natijada ustav kapitalining oshirilish summasi bitta aksiyaning nominal qiymatiga mutanosib bo'lishi ta'minlanmasa bank ustav kapitalini oshirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

4.21. Bank aksiyalari va boshqa emissiyaviy qimmatli qog'ozlar fond birjasi va tashkil etilgan birjadan tashqari qimmatli qog'ozlar bozorida joylashtirilgan taqdirda, mazkur chiqarilish bo'yicha joylashtirish hajmi ushbu chiqarilishdagi aksiyalar va boshqa emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning umumiy miqdorining kamida o'ttiz foizini tashkil etsa, chiqarilish amalga oshirilgan deb e'tirof etiladi.

4.22. Emissiya tartibi, aksiyalar chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonuniga (yangi tahrir) hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazilgan qimmatli qog'ozlarni emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Korporativ obligatsiyalar

4.23. Korporativ obligatsiya (keyingi o'rinlarda — obligatsiya) — tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, aksiyadorlik jamiyatlari va tijorat banklari tomonidan chiqariladigan obligatsiyalardir.

4.24. Bank aksiyalariga konvertatsiya qilinadigan qimmatli qog'ozlar sifatida bankning korporativ obligatsiyalari bo'lishi mumkin.

4.25. Korporativ obligatsiyalar chiqarish to'g'risidagi qaror bankning Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi. Bank obligatsiyalarni ularni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadagi o'z kapitali miqdori doirasida chiqarish huquqiga ega. Obligatsiyalar ko'rsatilgan xizmatlar va sotilgan tovarlar uchun to'lov yoki hisob-kitob vositasi sifatida foydalanilishi

mumkin emas. Obligatsiyalar ularning egalariga bankni boshqarishda ishtirok etish huquqini bermaydi. Bitta chiqarilish doirasida obligatsiyalar, ularni sotib olish vaqtidan qat'i nazar, bir xil huquqlar hajmi va amalga oshirish muddatlariga ega bo'ladi.

4.26. Bank aksiyalariga konvertatsiya qilinadigan korporativ obligatsiyalarni chiqarish to'g'risidagi qaror bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

4.27. Obligatsiyalar hujjatsiz shaklda foizli, diskontli, yutuqli va maqsadli (foizsiz) turlarda chiqarilishi mumkin. Xususan:

- foizli obligatsiyalar bo'yicha daromad belgilangan muddatda nominal qiymati bo'yicha so'ndirilishi va chiqarish shartlarida belgilangan qat'iy foizlar to'lanishi hisobiga shakllanadi;

- diskontli obligatsiyalar bo'yicha daromad belgilangan muddatda nominal qiymati bo'yicha so'ndirilishi natijasida yuzaga keladi, bunda foyda obligatsiyaning sotilish narxi bilan uning nominal qiymati o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi;

- yutuqli obligatsiyalar chiqarilganda, nominal qiymatga foiz yoki diskont shaklida belgilangan daromaddan tashqari, muntazam o'tkaziladigan tirajlar asosida yutuq tarzida to'lanadigan daromad ham belgilanishi lozim. Daromadi muntazam ravishda amalga oshiriladigan tirajlar bo'yicha yutuq tarzida belgilanadigan obligatsiyalar chiqarilishiga yo'l qo'yilmaydi;

- maqsadli (foizsiz) obligatsiyalar bo'yicha daromad tovar (xizmat) tarzida belgilanadi. Maqsadli obligatsiyalarning majburiy rekviziti ular chiqarilgan tovarni (xizmat) ko'rsatishdir;

- qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa turdagi obligatsiyalarni ham muomalaga chiqarishga yo'l qo'yiladi.

4.28. Berilgan kreditlar va bankning boshqa aktivlari bilan ta'minlangan qarz majburiyatlariga oid qimmatli qog'ozlar qonunchilikda belgilangan tartibda obligatsiyalar shaklida chiqarilishi mumkin.

4.29. Har bir chiqarilish obligatsiyasi uning egasiga bir xil hajmdagi huquqlarni beradi. Obligatsiya egasi obligatsiya shartlarida belgilangan muddatda uni so'ndirish vaqtida obligatsiyaning nominal qiymatini, shuningdek nominal qiymatdan foiz tarzidagi daromadni olish huquqiga ega.

4.30. Bank qayta tashkil etilgan taqdirda, obligatsiya egasi bankning obligatsiyalar bo'yicha majburiyatlarini tugatishni yoki muddatidan oldin bajarilishini hamda yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish huquqiga ega.

4.31. Bank tugatilgan taqdirda, obligatsiya egasi tegishli pul mablag'larini faqat barcha depozitorlarning talablari qondirilgandan keyin olish huquqiga ega.

4.32. Bank obligatsiyalar chiqarilishi qonunchilikka muvofiq amalga oshirilmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, obligatsiya egalariga kiritilgan investitsiya mablag'larining qaytarilishini ta'minlash majburiyatini oladi.

4.33. Obligatsiya egasi obligatsiyalarni qonunchilikda belgilangan tartibda erkin sotish yoki boshqa usullar bilan begonalashtirish huquqiga ega.

4.34. Obligatsiya egasi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega.

4.35. Obligatsiyalarni joylashtirish obuna yo'li bilan (bank va xaridor o'rtasida kelishilgan miqdordagi obligatsiyalar bo'yicha oldi-sotdi shartnomasi tuzish orqali) amalga oshirilishi mumkin.

4.36. Emissiya tartibi, obligatsiyalar chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori

to'g'risida"gi Qonuniga (yangi tahrir) hamda vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazilgan qimmatli qog'ozlarni emissiya va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Depozit va jamg'arma depozit sertifikatlari

4.37. Depozit sertifikati va jamg'arma depozit sertifikati (keyingi o'rinlarda — sertifikat) — noemissiyaviy qimmatli qog'oz bo'lib, bankka kiritilgan omonat (depozit) summasini hamda omonatchining (sertifikat egasining) belgilangan muddat tugagandan so'ng sertifikatni bergan bankda yoki ushbu bankning istalgan filialida omonat summasi va sertifikatda nazarda tutilgan foizlarni olish huquqini tasdiqlaydi.

4.38. Bank tomonidan depozit va jamg'arma depozit sertifikatlarini chiqarish to'g'risidagi qaror bankning Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

4.39. Depozit sertifikatlari yuridik shaxslar tomonidan sotib olinishi uchun chiqariladi.

4.40. Jamg'arma sertifikatlar jismoniy shaxslar tomonidan sotib olinishi uchun chiqariladi.

4.41. Sertifikat oldi-sotdi shartnomasining predmeti, meros, hadya, ustav fondiga ulush, shuningdek garov predmeti sifatida foydalanilishi mumkin. Sertifikatlarni joylashtirish masalalari bo'yicha mijoz va bank o'rtasidagi munosabatlar tegishli shartnoma bilan rasmiylashtiriladi.

4.42. Sertifikatlar hujjatli shaklda blankalar tarzida chiqariladi. Sertifikatlar qiymati O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi — so'mda ifodalanadi. Sertifikatlarni xorijiy valyutada chiqarishga yo'l qo'yilmaydi.

4.43. Sertifikat blankalari quyidagi majburiy rekvizitlarni o'z ichiga oladi:

- "depozit sertifikati" yoki "jamg'arma sertifikat" nomi;
- sertifikatning seriyasi va raqami;
- omonat yoki depozit kiritilgan sana;
- sertifikat bilan rasmiylashtirilgan omonat (depozit) summasi (raqamlar va yozma shaklda);
- bankning depozitga yoki omonatga kiritilgan summani qaytarish hamda belgilangan foizlarni to'lash bo'yicha so'zsiz majburiyati;
- sertifikat bo'yicha mablag'ni talab qilib olish sanasi;
- depozit yoki omonatdan foydalanish uchun foiz stavkasi;
- to'lanishi lozim bo'lgan foizlar summasi (raqamlar va yozma shaklda);
- emitent bankning nomi va manzili;
- depozit sertifikati uchun: yuridik shaxs bo'lgan omonatchining nomi va joylashgan manzili;
- jamg'arma sertifikati uchun: jismoniy shaxs bo'lgan omonatchining F.I.Sh. va pasport ma'lumotlari;
- bank tomonidan bunday majburiyatlarni imzolashga vakolat berilgan ikki shaxsning bank muhri bilan tasdiqlangan imzolari.

4.44. Chiqariladigan sertifikatlar kamida besh darajali himoya elementlariga ega bo'lishi lozim.

4.45. Bank sertifikatlari chiqarilishini ro'yxatdan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan amalga oshiriladi.

4.46. Depozit (jamg'arma) sertifikatlarni chiqarish tartibi, chiqarilishni ro'yxatdan o'tkazish hamda hujjatlarni rasmiylashtirish O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonuniga (yangi tahrir) hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2008-yil 14-avgustdagi 17/2-son qarori bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008-yil 24-sentabrda 1859-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan banklarning depozit (jamg'arma) sertifikatlarini chiqarish va muomalada bo'lishi tartibi to'g'risidagi Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

5-BOB. QIMMATLI QOG'OZLAR LIKVIDLIGINI TA'MINLASH

5.1. Bank barcha emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning likvidligini ta'minlashi shart. Qimmatli qog'ozlarning likvidligi deganda, muomalada bo'lgan qimmatli qog'ozlarning tez va oson ravishda naqd yoki naqdsiz pul mablag'lariga aylantirilish qobiliyati tushuniladi.

5.2. Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning (aksiyalardan tashqari) zarur likvidlik darajasini ta'minlash maqsadida, bank investor yoki mijozlar bilan kelishilgan holda, belgilangan tartibda ularni so'ndirish muddati tugashidan oldin qayta sotib olishi mumkin.

6-BOB. QIMMATLI QOG'OZLARNI JOYLASHTIRISH

6.1. Bank qimmatli qog'ozlarni mustaqil ravishda, shuningdek boshqa banklar va investitsiya vositachilari orqali joylashtirish huquqiga ega.

6.2. Qimmatli qog'ozlarni joylashtirish quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

- qimmatli qog'ozlarni xususiy joylashtirish (oldindan ma'lum bo'lgan cheklangan miqdordagi investorlar o'rtasida ochiq e'lon va reklama kampaniyasiz yopiq obuna);
- qimmatli qog'ozlarni ommaviy joylashtirish (reklamadan foydalangan holda cheklanmagan doiradagi investorlar o'rtasida ochiq obuna).

6.3. Joylashtirish jarayoni shaffoflik, tenglik va adolat tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

6.4. Yuqorida ko'rsatilgan har bir holat bo'yicha qimmatli qog'ozlar chiqarilishining minimal yoki maksimal hajmi qonunchilik bilan belgilanadi.

6.5. Depozit sertifikatlarini joylashtirish va ularning muomalasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

7-BOB. QIMMATLI QOG'OZLARNI SO'NDIRISH

7.1. Bank o'zi tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlar, shuningdek ular bilan bog'liq holda yuzaga kelgan barcha majburiyatlar bo'yicha qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar hisoblanadi.

7.2. Qimmatli qog'ozlar va qarz majburiyatlari bo'yicha bank tomonidan ham daromadlar, ham asosiy qarz summasi to'liq to'lanishi lozim.

8-BOB. EMISSIYA BILAN BOG‘LIQ RISKLARNI BOSHQARISH

8.1. Bank emissiya jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy va nomoliyaviy risklarni oldindan aniqlaydi, baholaydi va ularni minimallashtirish choralari ko‘radi.

8.2. Emissiya bilan bog‘liq risklarni boshqarish Bankning umumiy risk-menejment tizimi doirasida amalga oshiriladi hamda emissiya to‘g‘risida qaror qabul qilish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

8.3. Har bir emissiya loyihasi bo‘yicha moliyaviy-iqtisodiy asoslantirish bilan birga risk tahlili tayyorlanadi va vakolatli boshqaruv organiga taqdim etiladi.

8.4. *Emissiya bilan bog‘liq asosiy risk turlari*

8.4.1. *Bozor riski* – qimmatli qog‘ozlar qiymatining bozor sharoiti ta‘sirida o‘zgarishi bilan bog‘liq risk. Bunda valyuta kurslari, inflyatsiya darajasi, fond bozori konyunkturasi va investitsion muhit tahlil qilinadi. Zarur hollarda ssenariy tahlil va stress-test usullari qo‘llaniladi.

8.4.2. *Foiz riski* – obligatsiyalar va boshqa qarz instrumentlari bo‘yicha foiz stavkalari o‘zgarishi natijasida moliyaviy natijalarga salbiy ta‘sir ko‘rsatish ehtimoli. Foiz stavkalari dinamikasi va bozor tendensiyalari baholanadi, zarurat tug‘ilganda xedjirlash yoki stavka tuzilmasini optimallashtirish choralari ko‘riladi.

8.4.3. *Likvidlik riski* – emissiya natijasida Bankning joriy va uzoq muddatli likvidlik ko‘rsatkichlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatish xavfi. Bunda regulyativ likvidlik me‘yorlariga muvofiqlik tekshiriladi va pul oqimlari (cash-flow) prognozlarini ishlab chiqiladi.

8.4.4. *Kredit riski* – qarz instrumentlari bo‘yicha majburiyatlarni o‘z vaqtida va to‘liq bajara olmaslik xavfi. Bankning moliyaviy barqarorligi, kapital yetarliligi va qarz yuki ko‘rsatkichlari kompleks tahlil qilinadi.

8.4.5. *Reputatsion risk* – emissiya shartlari bajarilmasligi yoki investorlar huquqlari buzilishi natijasida Bank obro‘sigacha putur yetishi xavfi. Axborot oshkor qilishning to‘liqligi va shaffofligi ta‘minlanadi.

8.4.6. *Huquqiy va komplaens risklari* – emissiya jarayonida amaldagi qonunchilik va regulyativ talablarga rioya etilmasligi xavfi. Barcha emissiya hujjatlari huquqiy ekspertizadan o‘tkaziladi va komplaens nazorati ta‘minlanadi.

8.5. Emissiya bilan bog‘liq risklar sifat va miqdoriy tahlil usullari orqali baholanadi.

8.6. Risklarni kamaytirish maqsadida quyidagi choralar qo‘llanilishi mumkin:

- emissiya hajmi va shartlarini bozor sharoitiga mos belgilash;
- muddat va foiz stavkasini optimallashtirish;
- moliyaviy ko‘rsatkichlarni mustahkamlash;
- axborot oshkor qilishni kuchaytirish;
- yuridik va komplaens ekspertizani ta‘minlash.

8.7. Emissiya amalga oshirilgandan keyin risk ko‘rsatkichlari muntazam monitoring qilib boriladi va Kuzatuv kengashiga hisobot taqdim etiladi.

8.8. Aniqlangan jiddiy risklar yuzasidan zudlik bilan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi.

9-BOB. BANK TOMONIDAN AXBOROTNI OSHKOR ETISH

9.1. Bank qimmatli qog‘ozlar emitenti sifatida quyidagi hujjatlarda axborotni oshkor etadi:

- qimmatli qog‘ozlar emissiyasi risolasida;

- bankning choraklik va yillik hisobotlarida;
- bank faoliyatidagi muhim faktlar to'g'risidagi xabarlarda.

9.2. Hujjatlarning mazmuni, shuningdek axborotni oshkor etish tartibi va muddatlari amaldagi qonunchilik bilan belgilanadi.

9.3. Bank amaldagi qonunchilikka muvofiq investorlar uchun boshqa axborotlarni ham taqdim etishi mumkin.

10-BOB. BANKNING EMISSIYA FAOLIYATINI AUDIT QILISH

10.1. Bankning emissiya faoliyati auditi quyidagi ko'rsatkichlarni o'z ichiga olishi lozim:

- emissiya hujjatlarini rasmiylashtirish tartiblariga muvofiqligi;
- emissiya operatsiyalari bo'yicha qarorlar qabul qilish vakolatlarining to'g'riligi;
- qimmatli qog'ozlar emissiyasi bo'yicha hisobotlarning ishonchligi va ularning buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirilishi;
- qimmatli qog'ozlar emissiyasi samaradorligini tahlil qilish;
- bank emissiya faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

10.2. Emissiya faoliyatini baholash bankning ichki audit departamenti, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hamda bankning tashqi auditori tomonidan amalga oshiriladi.

11-BOB. YAKUNIY QOIDALAR

11.1. Mazkur Siyosat, shuningdek unga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar bankning Kuzatuv kengashi qarori bilan tasdiqlanadi.

11.2. Mazkur Siyosatda nazarda tutilmagan barcha boshqa hollarda, bank amaldagi qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

11.3. Mazkur Siyosat qoidalari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi yoki bank Ustaviga zid bo'lgan taqdirda, mazkur Siyosatga o'zgartirishlar kiritilgunga qadar tegishli ravishda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar hamda bank Ustavi qoidalari qo'llaniladi.

11.4. Shu bilan birga, bankning vakolatli organi tomonidan mazkur Siyosatni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va/yoki bank Ustaviga muvofiqlashtirish bo'yicha qayta ko'rib chiqish va moslashtirish ta'minlanadi.

11.5. Mazkur Siyosat tasdiqlangan kundan e'tiboran Bank Kuzatuv Kengashining 2020 yil 10 sentyabrdagi 2-sonli majlis bayoni bilan tasdiqlangan "ANOR BANK" aksiyadorlik jamiyatining Emissiya Siyosati o'z kuchini yo'qotadi.

Kiritildi:

Qimmatli qog'ozlar boshqarmasi boshlig'i v.b.



Umarov N.E.

Kelishildi:

Boshqaruv raisi




Akramov Sh.S.

Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari


Nadjimitdinov E.R.

Boshqaruv raisi o'rinbosari


Kadirov E.R.


Boshqaruv raisi o'rinbosari


Saydullayev A.R.

Boshqaruv raisi o'rinbosari


Xan S.D.

Boshqaruv raisi o'rinbosari


Nurutdinova M.D.


Boshqaruvchi direktor


Bakiyev A.A.


Yuridik boshqarma boshlig'i


Zanaxov T.F.

Bosh buxgalter


Babayev U.M.

Ichki nazorat departamenti direktori


Pulatova M.T.

Ichki audit departamenti direktori


Usmanov S.A.


G'aznachilik departamenti direktori


Xidoyatova Sh.M.

Moliyaviy menejment boshqarmasi boshlig'i


Azimov S.A.

Risk menejmenti departamenti direktori v.b.


Muminov A.A.